

**Shahobiddin XOLMATOV,**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali, O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti*

*TATU Farg'ona filiali, O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD I.Tishabaeva taqrizi asosida*

## O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK FALSAFASINI HUQUQIY NAMOYON BO'LISHI

Аннотация

Maqolada gender tushunchasi, gender tenglik falsafasi, ayollarni huquqiy himoyalanihi kabi tushunchalarga muammo sifatida ta'rif berilgan. Gender tengsizlikning oldini olishni dolzarbligini va uni tahlilini keltirib o'tilgan. Masalani yechimi sifatida huquqiy normativlarga asosan metodik yondashuvlar keltirilib, xulosa va takliflar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender, falsafa, ong, stereotip, huquq, ona, oila.

## ПРАВОВОЙ ПРИМЕР ФИЛОСОФИИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье в качестве проблем определяются концепция гендера, философия гендерного равенства и правовая защита женщин. Отмечается важность предотвращения гендерного неравенства и его анализа. В качестве решения проблемы представлены методические подходы, основанные на правовых нормах, даны выводы и предложения.

**Ключевые слова:** Гендер, философия, сознание, стереотип, право, мать, семья.

## LEGAL EXAMPLE OF THE PHILOSOPHY OF GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN

Annotation

The article identifies the concept of gender, the philosophy of gender equality and the legal protection of women as problems. The importance of preventing gender inequality and analyzing it is noted. As a solution to the problem, methodological approaches based on legal norms are presented, conclusions and suggestions are given.

**Key words:** Gender, philosophy, consciousness, stereotype, law, mother, family.

**Kirish.** Gender tenglik atamasi butun dunyo aholisi uchun dolzarb bo'lgan, biroq barcha davlat va jamiyatlarda ham unga so'zsiz va to'laonli amal qilinmaydigan hodisasi anglatadi. Gender tenglik munosabatlari inson huquqlarini muhofaza etishning oliy shakl va tamoyillarini o'zida mujassam etadi. Gender strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat. O'zbekistonda ham gender tenglik masalasi dolzarb masalaga aylangan va davlat dasturida gender masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Gender tushunchasi, ayollar huquqining erkaklar bilan tengligi masalasini, gendertarixi, shakllanish bosqichlari kabi masalalarni dunyo olimlaridan ko'pchiligi atroficha o'rganib chiqqan. Bu masalani o'rganish hozirgacha davom etmoqda. Tadqiqotlardan Haig, David[1], Udry, J. Richard[2], Kostikova I. V.[3], Lee Harrington[4], Jane Pilcher[5], Yarskaya-Smirnova E [6], Gapova E [7], Lindsey, Linda L.[8], Kirilina A. V.[9], Karajayeva E. I.[10], Shaxbazova X. V.[11], Zdravomyslova E.[12], Tomkina A.[12], Julia Serano [13], Lorber, Judith[14] kabilarni ishlarini misol tariqasida keltirildi. Metodlardan esa gorizontaal va tahliliy qiyoslash usullaridan unumli foydalanib gender tengsizlik masalasini yoritishga harakat qilindi.

**Natija va yechimlar.** Gender strategiyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarini yaratish;
- xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirish;
- aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o'rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish;
- xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini yuksaltirish;
- odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;
- oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;
- gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda budjetni rejalashtirish, gender masalalarini budjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish;
- gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish;
- gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo'lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirilishi bo'yicha O'zbekistonda 2019-yil 1 maydan e'tiboran bir qancha taqiqlar bekor qilingan va qonunan belgilab qo'yilgan. Ulardan biri, ayollar mehnatini muayan soha

yoki kasblarda qo'llash bo'yichataqiqlar bekor qilinganligidir. BUndan tashqari quyidagilar amalga oshirildi: tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxati tasdiqlandi;

So'nggi yillarda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga etib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Ma'lumki, Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 2015-yil sentabrda Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida «Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish»ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Xususan, Jahon bankining «Ayollar, biznes va qonun indeksi»da 190 ta mamlakat orasida 139-o'rinni, AQShning Jorjtaun instituti tomonidan yuritiladigan «Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi»da 167 ta mamlakat ichida 89-o'rinni egallamoqda.

Ishlarning barcha bosqichlarida O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli masalalarni o'z ichiga oladi. Aholi daromadlarini tizimli ravishda oshirib borish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalarini, shu jumladan, tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari mikrokredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan xotin-qizlar soni bir yilda 45 ming nafarga ko'paydi.

2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta'minlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish tajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizga yetdi. Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligining turli sohalarida 1,5 milliondan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi.

2017-yildan boshlab sog'liqni saqlash tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirilib, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, fuqarolarni sog'lom farzandlar tug'ilishiga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish, xotin-qizlar va erkaklarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlarni yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

So'nggi o'n yillikda butun dunyo hamjamiyatida demokratik meyor va tamoyillarni qaror toptirish uchun kurashning dolzarblashuvi munosabati bilan gender tengligi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Gender tengligi asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida umumiy tenglik konsepsiyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iboratdir.

**Xulosa.** 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo'lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Bundan tashqari, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlar ta'minlanishi, shuningdek, Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga olishi zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Haig, David. The Inexorable Rise of Gender and the Decline of Sex: Social Change in Academic Titles, 1945–2001 (angl.) // Archives of Sexual Behavior. — 2004. — Vol. 33, no. 2. — P. 87–96.
2. Udry, J. Richard. The Nature of Gender (angl.) // Demography. — 1994. — Vol. 31, no. 4. — P. 561–573.
3. Костикова И. В. и др. Введение в гендерные исследования. — 2-е изд. — М.: Аспект Пресс, 2005. — С. 8–10. — 255 с. — (Серия «Классический университетский учебник»). — ISBN 5-7567-0331-4.
4. Lee Harrington. Traversing gender: understanding transgender realities. — 2016. — С. 3, 41. — ISBN 978-1-942733-84-3.
5. Jane Pilcher, Imelda Whelehan. Gender // 50 Key Concepts in Gender Studies (angl.). — Sage, 2004. — ISBN 978-1-4129-3207-3.
6. Ярская-Смирнова Е. Возникновение и развитие гендерных исследований в США и Западной Европе // Введение в гендерные исследования. Ч. I: Учебное пособие / Ирина Жеребкина (ред.). — Харьков, СПб.: ХЦГИ, Алетейя, 2001. — С. 17–48. — ISBN 5-89329-397-5.
7. Гапова Е. Классовый вопрос постсоветского феминизма или об отвлечении угнетенных от революционной борьбы // Гендерные исследования. — 2006. — № 15. — С. 144–164.
8. Lindsey, Linda L. Ch. 1. The Sociology of gender // Gender Roles: A Sociological Perspective (angl.). — Pearson, 2010. — ISBN 0-13244-830-0.
9. Кирилина А. В. Лингвистические гендерные исследования как проявление смены эпистемы в гуманитарном знании // Армия и общество. — 2010. — № 4. — С. 110–114.
10. Каражаева Э. И. Гендерная асимметрия в русской, английской и осетинской паремии в семантическом поле «семья/супружество» // Вопросы филологии. — 2011. — № 1. — С. 115–118.

11. Шахбазова Х. В. Гендерные признаки русских и чеченских фразеологических и паремиологических единиц // Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 2: Гуманитарные науки. — 2018. — Т. 33. — №. 1. — С. 90-94.
12. Здравомыслова О. Гендерные исследования как опыт публичной социологии в России. Полит.Ру (24 сентября 2009).; Здравомыслова Е., Тёмкина А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория // Введение в гендерные исследования. Ч. I: Учебное пособие / Ирина Жеребкина (ред.). — Харьков, СПб.: ХЦГИ, Алтейя, 2001. — С. 147—173. — ISBN 5-89329-397-5.
13. Julia Serano. Whipping Girl: A Transsexual Woman on Sexism and the Scapegoating of Femininity. — Seal Press, 2007. — ISBN 978-1-58005-154-5.
14. Lorber Judith. The Social construction of gender. — Sage, 1990. — ISBN 978-0-8039-3956-